

## YoShLAR SPORTGA JALB ETILMOQDA



### YoShLAR SPORTGA JALB ETILMOQDA

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'inida mahallaga tayinlangan yoshlar yetakchisi Muhib Azamjonov tashabbusi bilan sportning futbol turi bo'yicha musobaqalar tashkil etilib o'tkazildi. Musobaqalarda ishtirok etgan 18 ta jamoadan o'zaro bellashuvlar orqali eng faollari saralab olindi.

Musobaqalarda ishtirok etgan 1998 yilda tug'ilgan yoshlar birinchi va 2001 yilda tug'ilgan yosh futbolchilar ikkinchi o'rinni egallashdi.

Faol qatnashgan futbol jamoalari va futbolchilarga musobaqa tashkilotchilari va homiylarning qimmatbaho sovg'alari taqdim etildi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-02-07 18:36:09